



## Qishloq xo‘alıklarida almashlab ekish va ilg‘or Agrotexnologiyalarini qo‘llash samaradorlikni oshirish

### Qo‘qon davlat pedagogika instituti Usmonov Saminjon Olimovich

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekistonda paxtachilik tarmog‘ini samarali rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini hayotga to‘lalgicha tatbiq etishdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan tadbirlar va ularning samaradorligini oshirishda mamlakat qishloq xo‘jaligi sohasida 180 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Paxta tolasi, almashlab ekish, texnologiya, moliyaviy qo‘yilmalar, investitsiya loyihasi, to‘qimachilik sanoati, texnologik jarayonlar, xalqaro tajriba.

Mavzuning dolzarbligi. O‘zbekistonda paxtachilik tarmog‘ini samarali rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri qishloqda agrar va iqtisodiy munosabatlarni isloh qilishning huquqiy asoslarini hayotga to‘lalgicha tatbiq etishdir. Mustaqillik yillarida mamlakatimizda amalga oshirilgan tadbirlar va ularning samaradorligini oshirishda mamlakat qishloq xo‘jaligi sohasida 180 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Shuningdek, qishloq xo‘jaligi sohasiga ayrim xususiyatlari bilan taalluqli bo‘lgan 500 ga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar amalda ishlab kelmoqda. Hozirgi davrning asosiy talablaridan biri qishloq xo‘jaligida, jumladan, paxtachilikda xom ashyo ishlab chiqarishgina emas, balki uni qayta ishlash va sotishni to‘g‘ri va samarali amalga oshirishdan iboratdir. Chunki yaratiladigan qo‘shimcha qiymatning, ya‘ni daromadning asosiy qismi aynan keyingi sohalarda tashkil topmoqda. Respublikamizda avvaldan paxtachilik asosiy mahsulotlarining samaradorligini oshirish omillaridan to‘laroq foydalanish masalalari paxta xom ashyosi, paxta tolasi, paxta yog‘i, gazlama va boshqa paxtachilik mahsulotlari bo‘yicha alohida-alohida hal etib kelingan. Respublikamiz oziq-ovqat havfsizligining asosiy tayanchi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e‘tibor qaratilmokda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va urug‘chilik seleksiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga, puxta o‘ylangan ishlar amalga oshirildi.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirish va aholini turmush darajasini yaxshilashga bug‘doy yetishtirish alohida ahamiyatga ega. Ushbu muammoni hal etishda ishlab chiqarishni to‘g‘ri tashkil etish va takomillashtirib borish zarur. Ishlab chiqarishni takominlashtirishni mohiyati bu o‘tmishdosh ekinlar xususiyatini inobatga olgan holda almashlab ekish, yuqori hosil va sifati yaxshi bo‘lgan navlardan foydalanish, tuproq unumdorligiga ko‘ra va o‘g‘itlarni sifatini inobatga olgan xolda mineral o‘g‘itlar bilan o‘z vaqtida va mutanosib ravishda ta‘minlash, hashoratlarga va turli kasalliklarga ishlov berish, o‘z vaqtida va sifatli agrotexnik tadbirlarni bajarish, yuqori unum mashinalardan, agregatlardan foydalanish va ularni sozlab borishda. Ishlab chiqarishni takomillashtirishni maqsadi bu inson mehnatini



ishlab chiqarish vositalari bilan mutanosib ravishda olib borish orqali paxta yetishtirishda mehnat madaniyatini yaxshilash, hosildorligini oshirish, sifatini yaxshilash va mahsulot tannarxini kamaytirishdan iborat. Paxta yetishtirishni takomillashtirishga taʼsir etuvchi omillarni quyidagi 4 ta yirik guruhlarga (tabiiy, texnik, tashkiliy-huquqiy va iqtisodiy-ijtimoiy) boʻlib olishimiz mumkin. Tabiiy omillar guruhiga – xoʻjalikni iqlim sharoiti (kuzni yaxshi kelishi) xoʻjalikni joylanishi, tuproqning holati va suv bilan taʼminlanish darajasini kiritishimiz mumkin. Texnik omillar guruhiga – zaruriy texnika bilan taʼminlanish darajasi, texnikani texnik holati, texnikani quvvati, texnikani qamrash kengligi, texnikani smenali ish unumini kiritishimiz mumkin. 1 Andijon qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalari instituti “Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti” kafedrasida assistenti 2 Andijon qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalari instituti Agrobiznes va investitsion faoliyat taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich talabasi 3 Andijon qishloq xoʻjaligi va agrotexnologiyalari instituti Agrobiznes va investitsion faoliyat taʼlim yoʻnalishi 1-bosqich talabasi Tashkiliy-huquqiy omillar guruhiga – ekin yetishtirish texnologiyasini mukkamal bilish, yangi yuqori hosil beradigan navlardan foydalanish, paxta yetishtirish texnologiyasiga amal qilish, ishlab chiqarish vositalarini mutanosibligini taʼminlash, meʼyorlardan foydalanish, hashoratlarga va kasalliklarga qarshi ishlov berish, oʻgʻitdan foydalanish, sharbat bilan sugʻorish, oʻz vaqtida hosilni yigʻib-terib olish, urugʻlik uchun paxta yetishtirish imkoniyatini kengaytirish, standartlarga amal qilish va uni yaxshilash uchun xoʻjaliklarga yetarlicha sharoitlar yaratib berish kabi omillarni kiritamiz. Iqtisodiy omillar guruhiga – shartnoma munosabatlari holati, zaruriy mablagʻ bilan taʼminlash, oʻz vaqtida mablagʻlarni oʻtkazib berish, mehnatni ragʻbatlantirish tizimlarini kiritishimiz mumkin. Izboskan tumanidagi fermer xoʻjaliklarida paxta yetishtirishni tashkil etishda quyidagi omillarga eʼtibor qaratish zarur: Urugʻlik materiallarga eʼtiborni kuchaytirish xisobiga yalpi xosilni 2 foizga oshirish imkoniga erishiladi.

1. Ekiladigan urugʻlik chigitlarni xoʻjalikni oʻzida dorilashni amalga oshirish hisobiga xarajatlar kamayadi.

2. Ekiladigan urugʻlik chigitlarni, maxsus ixtisoslashgan zamonaviy keng qamrovli seyalkalar yordamida ekishni amalga oshirish. (Hozirgi kunda urugʻlik chigitni ish unumdorligi past bolgan eski texnikalar yordamida sepilmokda).

3. Ekiladigan urugʻlik materiallarni davlat standartlar talabiga keltirgan xolda unuvchanligini 100 foizga yetkazish. Paxta yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish natijasida yalpi hosilni 5 foizga oshirish imkoniga erishiladi. 1. Ekinlarni sugʻorishda suv tejoychi texnologiyalardan yomgʻirilatib va tomchilatib sugʻorish usullari keng qoʻllanilishi zarur. Tomchilatib sugʻorish tizimini keng joriy qilish, qishloq xoʻjaligi ishlab chiqarishi samaradorligi oshirish imkoniyatini yaratadi. Shu bilan birgalikda, har bir ekin turi uchun maxsus tomchilatib sugʻorish usullaridan foydalanish va tomchilatib sugʻorish tizimini kompyuter dasturlari orqali boshqarish masalalarida malakali mutaxassislar tayyorlash ham istiqbolda muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamiz hudularida olib borilgan tajribalardan maʼlum boʻlganki, tomchilatib sugʻorish



paxtachilikda suv sarfini 65 foizgacha tejash, mehnat va moddiy resurslar sarfi ikki barobarga kamaytirish imkonini berar ekan. 2. AQSH va Xitoy davlatlarida paxtachilik tarmog‘ini ishlab chiqarishi bilan bog‘liq deyarli barcha yo‘nalishlarda — mexanizatsiya, kimyoviy vositalar qo‘llash, selektsiya va genetika, hududiy ixtisoslashtirish, biotexnologiyalardan foydalanishda innovatsiyalarni keng ko‘lamli tatbiq etish chora-tadbirlari doimiy ravishda amalga oshirilib boriladi. Jumladan, paxta yetishtirishda Xitoy texnologiyasini qo‘llash an‘anaviy texnologiya bilan solishtirganda xarajatlarni 7-10 foiz qisqartirishi tajribalarda isbotlangan. 4 3. Paxta yetishtirishda uchraydigan hashorat va kasalliklarga qarshi kimyoviy va biologik kurashlarni uyg‘unlikda olib borish. Ushbu tadbirlarni amalga oshirish xisobiga yetishtirilgan hosilni saqlab qolish, nobud bo‘lishini oldini olish imkonini beradi. Yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirib olishga e‘tiborni kuchaytirish hisobiga yalpi hosilni 2 foizga oshirish imkoniga erishiladi. Paxta hosildorligi, sifati va tannarxi uni erta yig‘ib—terib olinishga bevosita bog‘liq bo‘lib, resurslar samaradorligini kompleks ravishda, qaysi resursdan qachon va qanday foydalanishni ilmiy asoslangan tavsiyalarda ko‘rsatilganidek yondashish kutilgan natijani beradi. Bu esa o‘z navbatida qishloq xo‘jaligida ishlatiladigan resurslarning barcha turlari (yer, suv, mehnat, texnika vositalari, urug‘lik va boshqalar)ni kamaytirish bilan bir qatorda yetishtiriladigan mahsulot hajmini ko‘paytirish va sifati yaxshilash imkoniyatlarini yanada kengaytiradi. Hosilni o‘z vaqtida yig‘ishtirib olishga kirishish va hosilni yig‘ib-terib olishda yuqori unumli texnikalardan foydalanish yalpi hosilni 5 tsentnerga nobudgarchiligini kamaytiradi. Yetishtirilgan hosilni boshlang‘ich qayta ishlash natijasida nakidka hisobiga yalpi hosil 5 tsentnergacha ko‘payadi.

Xulosa qilganda, Izboskan tumanidagi —Akramjon merosil fermer xo‘jaligida paxta yetishtirishni tashkil etishga ta‘sir etuvchi omillarga yetarlicha e‘tibor berilsa, mahsulot miqdori ko‘payadi, sifati yaxshilanadi, mahsulotni raqobatbardoshligi ortadi, tannarxi kamayadi, daromad va foyda ortadi, ishchilarni turmush shart-sharoiti yaxshilanadi.

1. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda mamlakat iqtisodiyoti uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘lgan paxtachilik kompleksini rivojlantirish xomashyo ishlab chiqarish va sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga kuchli turtki beradi. Bu rivojlangan davlatlar tajribasida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, paxtachilik kompleksini rivojlantirishni rag‘batlantirish, uning raqobatbardoshligini oshirish mamlakatimizning milliy iqtisodiy manfaatlarini uchun muhim ahamiyatga ega. 2. O‘zbekistonda paxtachilikni rivojlanishiga har bir davrning o‘ziga xos bo‘lgan xususiyatlaridan kelib chiqib, unga ta‘sir etuvchi omillar tarkibi o‘zgarib turgan hamda har bir davrda ularni tarmoq rivojiga ta‘siri ham turlicha bo‘lgan. Hozirgi davrda paxtachilikda iqtisodiy samaradorlikni oshirish quyidagi omillar bilan bog‘liq: — Ish vaqtini tejash va unumdorlikni oshirish; — Fan-texnika yutuqlarini qo‘llash; — Inson omilini rivojlantirish; Boshqaruv tizimini takomillashtirish. 1. Paxta yetishtirish samaradorligini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tegishli umumiy iqtisodiy indikatorlarni qamrab olgan holda, sohada barcha turdagi resurslardan foydalanish samaradorligini baholash



imkonini beradi. Amalga oshirilgan choratadbirlarning natijasida xo‘jalikning erishilgan ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligini hisoblashda natural, qiymat, nisbiy va sifat ko‘rsatkichlari shaklida ifodalash lozim. 2. Fermer xo‘jaliklarida paxta yetishtirish samaradorligini oshirish quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga oladi: Urug‘lik materiallarga e‘tiborni kuchaytirish hisobiga yalpi hosilni 2 foizga oshirish imkonini beradi; Paxta yetishtirishda agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish natijasida yalpi hosilni 5-10 foizga oshirish imkoniga erishiladi. Masalan, tomchilatib sug‘orish tizimini keng joriy qilish, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi samaradorligi oshirish imkoniyatini yaratadi. Bunda moddiy xarajatlarni ikki barobargacha qisqartirish mumkin. Paxtachilikda AQSh va Xitoy agrotexnologiyalarini qo‘llash esa xarajatlarni 7-10 foizga qisqartirishi tajribada isbotlangan; Yetishtirilgan hosilni yig‘ishtirib olishga e‘tiborni kuchaytirish hisobiga yalpi hosilni 2 foizga oshirish imkoniga erishiladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Murtazayev O. Paxtachilik agrosanoat majmuasi samaradorligini oshirish muammolari. T.: Fan, 2005.
2. Qayumov F.K. Effektivnost i APK v usloviyax perexoda k rinku. — M., IPO Poligrant, 1992.
3. Umurzaqov U.P. Puti povisheniye effektivnosti ispolzovaniya resurs-nogo potentsiala agrarnogo sektora ekonomiki Uzbekistana. —T.: 2005.
4. Muydinovich, R. I. (2021). Strategic Conditions for the Modernization of the Educational System in the 3-Renaissance. *Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science*, 2(6), 85-92.
5. Расулов, И. (2014). Формирование понятий и навыков у учеников при создании ребусов при помощи компьютерных технологий. *Актуальные проблемы современной науки*, (3), 84-88.
6. Muydinovich, R. I. (2022). INFORMATIKA FANI YO‘NALISHIDA ZAMONAVIY DASTURLASH TILLARINI O‘RGANISHNING AHAMIYATI. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 1, No. 4, pp. 75-78).
7. Muydinovich, R. I. (2021). Problems and solutions of teaching in credit-module system in higher education institutions. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(04), 721-727.
8. Muydinovich, R. I. (2020). Advantage And Methodological Problems Of Teaching Computer Science In Modern Schools. *The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research*, 2(10), 13-16.
9. Rasulov, I. M. (2022). ADVANTAGE AND METHODOLOGICAL PROBLEMS OF TEACHING COMPUTER SCIENCE IN MODERN SCHOOLS. *Ученый XXI века*, 22.
10. Muydinovich, R. I. (2022). RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING RIVOJLANISHI TUFAYLI PAYDO BO‘LGAN KASBLAR VA ULARNI O‘RGANISH. *PEDAGOGS jurnali*, 13(1), 117-122.
11. Muydinovich, R. I. (2022, April). INTEGRITY AND CONTINUITY OF COMPUTER SCIENCE IN THE SYSTEM OF CONTINUING EDUCATION. In *E Conference Zone* (pp. 322-326).
12. Muydinovich, R. I. (2022). THE ROLE OF INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGIES IN PROVIDING INTERDISCIPLINARY INTEGRATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1281-1286.
13. Muydinovich, R. I. (2022). VOCATIONAL TRAINING OF SECONDARY SCHOOL STUDENTS BASED ON DIGITAL TECHNOLOGIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 209-216.
14. Rasulov, I. M., Makhkamova, D. X., & Nishanbekov, N. O. (2023). THE CONCEPT OF MEDIA COMPETENCE OF THE FUTURE INFORMATICS TEACHER AND THE METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF ITS DEVELOPMENT. *Conferencea*, 12-17.
15. Makhkamova, D. X. (2023). THE ADVANTAGES OF USING THE POSSIBILITIES OF INFOGRAPHICS IN THE WORK OF FUTURE INFORMATICS AND INFORMATION TECHNOLOGY TEACHERS. *Open Access Repository*, 9(3), 291-298.



16. Mashxura, M., & Siddiqov, I. M. Z. (2023). Effects of the Flipped Classroom in Teaching Computer Graphics. *Eurasian Research Bulletin*, 16, 119-123.
17. Siddiqov, I. M. (2023). SCRIBING-KELAJAK TEXNOLOGIYASI. *Talqin va tadqiqotlar*, 1(1).
18. Melikuzievich, S. I. (2022). Providing The Integration of Modern Pedagogical and Information-Communication Technologies in Higher Education. *Texas Journal of Engineering and Technology*, 15, 103-106. Melikuzievich, S. I. (2022). AN EFFECTIVE WAY TO PRESENT EDUCATIONAL MATERIALS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 224-229.
19. Meliqo'ziyevich, S. I. (2022). UMUMIY O 'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI FANINI O 'QITISHDA RIVOJLANTIRUVCHI TEXNOLOGIYALAR. *IJODKOR O'QITUVCHI*, 2(19), 231-235.
20. Melikyzievich, S. I., Turdalievich, M. I., Shukurovich, M. S., & Mansurovich, Z. M. (2022). THE METHOD OF REFERENCE TESTS FOR THE DIAGNOSIS OF DIGITAL DEVICES. *International Journal of Early Childhood Special Education*, 14(7).
21. Siddiqov, I. M., & Igamberdiyev, U. R. (2021). PEDAGOGIKA OLIYGOHLARIDA TALABALARNING IJODIY QOBILIYATLARINI SHAKILLANTIRISHDA MUAMMOLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(11), 1146-1163.
22. Siddikov, I. M. About Testing Digital Devices by Reference Tests. *JournalINX*, 7(06), 315-317.
23. Akbarov, U. Y., Rafiqov, F. Q., & Akbarov, S. (2022). MAPLE PROGRAM TO THE SOLUTION OF EQUATIONS REPRESENTING PROBLEMS OF HEAT DISPOSION. *Open Access Repository*, 8(12), 230-240.
24. Rahmatullaev, M., Rafikov, F. K., & Azamov, S. K. (2021). Про конструктивні описи мір Гіббса для моделі Поттса на дереві Келі. *Ukrains' kyj Matematychnyi Zhurnal*, 73(7), 938-950.
25. Rahmatullaev, M. M., Rafikov, F. K., & Azamov, S. (2021). On the Constructive Description of Gibbs Measures for the Potts Model on a Cayley Tree. *Ukrainian Mathematical Journal*, 73(7).
26. Rafiqov, F. Q. (2023). STUDY OF THE DEVELOPMENT AND HISTORY OF THE METHODOLOGY OF TEACHING MATHEMATICS IN HIGHER EDUCATION. *Conferencea*, 73-76.
27. Rafiqov, F. Q. (2023, April). OBJECTIVES AND OBJECTIVES OF THE METHODOLOGY OF TEACHING MATHEMATICS. In *E Conference Zone* (pp. 18-20).
28. Bazarbayevich, I. F. (2022). SIMILARITY ASPECTS OF ENGLISH AND RUSSIAN LANGUAGES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(3), 481-484.
29. Bazarbayevich, I. F., Adham, B., & Bazarbayevich, I. S. (2021). Similarity aspects of english and russian languages. *ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL*, 11(2), 891-895.